

«TASDIQLAYMAN»

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy universitetining Jizzax filiali direktori

O.Turakulov

2025-yil

«30» 08

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI
O'QUV-USLUBIY BOSHQARMANING 2025-2026 O'QUV YILI UCHUN
ISH REJASI

№	Tadbirlar nomi	Bajarilish muddati	Bajarilishi bo'yicha mas'ullar
1.	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi o'rnatgan tartibda o'quv reja va dasturlarga muvofiq ravishda o'quv jarayonini tashkil qilish.	2025-yil sentabr	O'quv-uslubiy boshqarma, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
2.	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 3-iyuldagi 252-son buyrug'i asosida O'quv-uslubiy boshqarmaning Nizomini yangilash va o'rnatilgan tartibda tasdiqlatish.	2025-yil avgust	O'quv-uslubiy boshqarma
3.	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil ning 22-avgustdagi 321-sonli buyrug'iga asosan o'quv jarayonini tashkil etishga tayyorgarlik ko'rish.	2025-yil 30-avgust	O'quv-uslubiy boshqarma, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
4.	Filial fakultetlarida 2025-2026 o'quv yili kuzgi semestri dars jadvalini ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibda tasdiqlatilishini nazoratga olish.	2025-yil 30-avgust	O'quv-uslubiy boshqarma, fakultet dekan o'rinbosarlari
5.	2025-2026 o'quv yili uchun o'quv jarayoni grafigini ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibda tasdiqlatish.	2025-yil 30-avgust	O'quv-uslubiy boshqarma, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
6.	Filial fakultetlarida kredit haftaligini tashkil qilish bo'yicha mashg'ulotlar jadvalini ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibda tasdiqlatilishini nazoratga olish.	2025-yil 30-avgust	O'quv-uslubiy boshqarma,

			fakultet dekan o'rinbosarlari
7.	2025-2026 o'quv yili kuzgi semestri uchun HEMIS tizimiga kiritilgan ma'lumotlarni nazorat qilish.	Kuzgi semestr davomida	O'quv-uslubiy boshqarma, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
8.	Kafedralar tomonidan fanlar bo'yicha ishchi o'quv dasturlari (sillabuslar)ni o'rnatilgan tartibda tasdiqlanishini nazorat qilish.	2025-yil avgust	O'quv-uslubiy boshqarma, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
9.	Filialda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrda 797-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagogik kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq kafedralarda pedagog xodimlarning malaka oshirish bo'yicha yillik rejasining bajarilishini nazorat qilish va 2026-yil uchun malaka oshirish rejasini ishlab chiqish.	2025- yil noyabr	O'quv-uslubiy boshqarma, kafedra mudirlari
10.	Filialda dars sifatini yanada oshirish maqsadida muammoli darslar rejasini ishlab chiqish va uning o'tkazilishini nazorat qilish. Filialda o'tiladigan darslarni tahlil qilish texnologiyasini takomillashtirish va 2025-2026 o'quv yilida tahlil qilingan dars natijalariga asosan dars sifati past bahoga baholangan pedagog xodimlarni malaka oshirishga yuborish hamda malaka oshirgan pedagog xodimlarning pedagogik faoliyatini nazorat qilish.	O'quv yili davomida	O'quv-uslubiy boshqarma, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
11.	Filialda ochiq ma'ruzalarni o'tkazish jadvalini ishlab chiqish va filial veb-saytiga joylashtirish hamda belgilangan muddatda o'tkazilishini nazorat qilish. O'zR FA ilmiy tekshirish institutlari va tayanch OTM yetuk olimlarini, Jizzax viloyatidagi kadrlar buyurtmachilari bo'lgan yetakchi ishlab chiqarish korxona va tashkilotlarning malakali mutaxassislarini ochiq ma'ruzalar o'tkazish hamda ekspert sifatida qatnashish va tajriba almashishlari uchun taklif etish.	O'quv yili davomida	O'quv-uslubiy boshqarma, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
12.	Filialda 2025-2026 o'quv yilida ishga qabul qilingan yosh o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy qilish, ingliz tilini o'rganish bo'yicha maxsus kurslar va seminarlar tashkil etish.	O'quv yili davomida	O'quv-uslubiy boshqarma, Kompyuter ilmlari va dasturlashtirish va Axborot tizimlari va

			texnologiyalari kafedralari
13.	Filialda 2025-2026 o'quv yilida o'qitish jarayonini yangi o'quv adabiyotlari bilan boyitish hamda 2025- yil rejasining bajarilishini tahlil qilish, 2026- yil uchun filialning yangi o'quv adabiyotlar yaratish rejasini ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibda tasdiqlatish.	2026-yil yanvar	O'quv-uslubiy boshqarma, kafedra mudirlari
14.	Filial talabalarining o'z ustlarida ishlashlari uchun o'quv adabiyotlari va jahon axborot tarmog'iga ulangan Internet tarmoqlaridan foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratish. Filialning axborot-resurs markazini yanada rivojlantirish. Filial axborot-resurs markazi bazasiga kiritiladigan ma'lumotlarni tayyorlash rejasini (reja-topshiriq)ning bajarilishini nazorat qilish. Filial axborot-resurs markazi (ARM)ning axborot ma'lumotlar bazasini yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish maqsadida yangi tahrirdagi elektron axborot-resurs markazi (darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar va h.k.)ni tayyorlash va filial veb-saytiga joylashtirish.	O'quv yili davomida	O'quv-uslubiy boshqarma, raqamli ta'lim texnologiyalari markazi, axborot-resurs markazi
15.	Filialda 2025-2026 o'quv yilida bajariladigan BMI mavzulari mazmunini kadrlar buyurtmachilari hisoblangan tashkilot, korxona va idoralarning buyurtmalari asosida amaliy masalalarni hal etishga qaratilgan bo'lishini ta'minlash va ularning sifatini nazorat qilish.	2025-yil, dekabr	O'quv-uslubiy boshqarma, kafedra mudirlari
16.	Filialda yangi o'quv adabiyotlarini ishlab chiqish va zarur adabiyotlarni tarjima qilish, o'quv jarayonida yetishmaydigan darslik va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash uchun yirik olim va yuqori malakali mutaxassislardan iborat mualliflik guruhlarini shakllantirish, filialda o'qitiladigan fanlarni o'quv-uslubiy adabiyotlari bilan ta'minlanganlik monitoringini olib borish, axborot-resurs markazida yetishmaydigan o'quv adabiyotlariga buyurtmalar berish.	O'quv yili davomida	O'quv-uslubiy boshqarma, axborot-resurs markazi, kafedra mudirlari
17.	Filial kafedralariga tegishli laboratoriyalarni zamonaviy asbob-uskunalar va texnik vositalari bilan ta'minlanishini inventarizatsiyadan o'tkazish, ularni yangilash bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilash, yangi asbob-uskuna va texnik vositalariga buyurtma berish, zamonaviy talab asosida jihozlangan auditoriyalarni tashkil etish. Filialda virtual amaliy-laboratoriya vositalarini ishlab chiqish va ularning alternativ variantlarini keltirishni nazorat qilish.	O'quv yili davomida	O'quv-uslubiy boshqarma, kafedra mudirlari
18.	Filialda talabalarining mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish. "Talaba mustaqil ishi" jadvaliga asosan namunaviy hisob ishi, kurs ishlarining bajarilishiga e'tiborni	O'quv yili davomida	O'quv-uslubiy boshqarma,

	qaratish, buning uchun barcha fanlardan yaratilgan o'quv-uslubiy ta'minotdan to'liq foydalanish.		fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
19.	Filialda Oliy ta'lim muammolarini, ayniqsa, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilish, ular bilan ishlash darajasini oshirish maqsadida o'quv-uslubiy seminarlar tashkil etish. Filialda ish yuritish hujjatlarining sifatli yuritilishini nazorat qilib borish.	O'quv yili davomida	O'quv-uslubiy boshqarma, fakultet dekanlari
20.	Filialda maxsus fanlarni o'qitishga zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarining yuqori malakali mutaxassislarini jalb etish.	O'quv yili davomida	O'quv-uslubiy boshqarma, kafedra mudirlari
21.	Filialning barcha ta'lim yo'nalishlari uchun 2025/2026-o'quv yilida yuqori kurslarda o'qitiladigan fanlarning o'quv dastur (sillabus)larini xalqaro reytinglarda TOP-300 talikka kirgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqish va tasdiqlash.	O'quv yili davomida	O'quv-uslubiy boshqarma, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
22.	Ta'lim sifatini oshirish maqsadida xorijiy OTMlar professor-o'qituvchilari tomonidan filial talabalari uchun ochiq onlayn kurslar, seminar-treninglar, master klasslar o'tkazilishini tashkil etish.	O'quv yili davomida	O'quv-uslubiy boshqarma, kafedra mudirlari
23.	2025-2026 o'quv yili mobaynida filialda namunaviy o'qitish xonalarining (zamonaviy kompyuter, elektron doska, proyektor, audio-video texnikasi bilan jihozlanganligini) aniqlash va bu sohada kafedralararo tanlovlar tashkil etish, yuqori natijalarga erishgan kafedralarni moddiy rag'batlantirish bo'yicha filial ma'muriyatiga takliflar kiritish. Auditoriyalarni lotin yozuvidagi tayyorlangan ko'rgazmali qurollar bilan jihozlanishini nazoratga olish.	O'quv yili davomida	O'quv-uslubiy boshqarma, fakultet dekanlari, raqamli ta'lim texnologiyalari markazi
24.	Filialda mavjud ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'quv rejasiga asosan o'quv adabiyotlar (darslik va o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, texnik jurnallar va ommaviy axborot vositalarining elektron ma'lumotlar majmuasi)dan iborat ma'lumotlar bazasini yaratish, yaratilgan bazani doimo to'ldirib yangilab borish.	O'quv yili davomida	O'quv-uslubiy boshqarma, axborot-resurs markazi, kafedra mudirlari
25.	Filialda zamonaviy axborot texnologiyalari, mavjud kompyuter tarmog'i negizida o'quv-tarbiya jarayonini axborot bilan ta'minlashni rivojlantirish. Internet tarmog'idan foydalanuvchilar sonini oshirish. Filialda kompyuterlardan foydalanish samaradorligini tahlil qilib borish, jismonan va ma'naviy eskirgan kompyuterlar bo'yicha filial ma'muriyatiga ma'lumot kiritish.	O'quv yili davomida	O'quv-uslubiy boshqarma, raqamli ta'lim texnologiyalari markazi
26.	Filialda rahbariyat, fakultet, kafedra va bo'limlar o'rtasida axborot almashishni filial lokal tarmog'i orqali amalga oshirish. Filial lokal tarmog'ining muntazam ishlab	O'quv yili davomida	O'quv-uslubiy boshqarma,

	turishini ta'minlash. Talaba-o'qituvchi muloqoti (amaliy (seminar) mashg'ulotlari, konsultatsiyalar)ning bir qismini masofadan turib lokal tarmoq orqali amalga oshirish.		raqamli ta'lim texnologiyalari markazi
27.	2025-2026 o'quv yili kuzgi semestri uchun HEMIS tizimiga kiritilgan ma'lumotlarni nazorat qilish.	2025-yil sentabr-dekabr	O'quv-uslubiy boshqarma, raqamli ta'lim texnologiyalari markazi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
28.	Dars mashg'ulotlarining sifatli o'tilishi hamda yakuniy baholashning adolatli olib borilishini videokuzatuv orqali amalga oshirish, videokuzatuvning to'liq ishlab turishini ta'minlash.	O'quv yili davomida	O'quv-uslubiy boshqarma, raqamli ta'lim texnologiyalari markazi
29.	O'quv jarayoni va pedagog xodimlarning malaka oshirish tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llash samaradorligini oshirish bo'yicha professor-o'qituvchi va talabalar uchun tashkil etilayotgan maxsus o'quv kurslari faoliyatini yanada takomillashtirish.	O'quv yili davomida	O'quv-uslubiy boshqarma, raqamli ta'lim texnologiyalari markazi
30.	Filialda talabalar bilimini nazorat qilish va baholash Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018 son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" (O'zbekiston respublikasi Adliya vazirligida 2018-yil 26-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami №3069) talablari asosida o'tkazilishi belgilangan. Nizomga asosan 1-5-kurslarda talabalar bilimini baholash 100 ballik tizimda amalga oshirilishini va talabalar bilimini baholashning reyting tizimi natijalari (joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar)ni nazoratga olish.	O'quv yili davomida	O'quv-uslubiy boshqarma, raqamli ta'lim texnologiyalari markazi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari

K E L I S H I L D I

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

R. Abduraxmanov

A. Ko'chimov

